TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 11 - oktabr 292-14-220-Q/23 Yangihayot tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida ish o‘rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi “Aholi bandligi to‘g‘risida” O‘RQ-642-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining 2023-yil 11-sentabrdagi 26/13-01/20-666-sonli xatini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

2024-yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonining 2,7 foizi miqdorida (370 kishi), shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha va nogironligi bor bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz onalar va ko‘p bolali oilalar uchun 44,3 foiz (164 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari 34,0 foiz (126 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar 3,0 foiz (11 kishi);

nogironligi bo‘lgan shaxs uchun 3,2 foiz (12 kishi);

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 12,0 foiz (44 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar 3,0 foiz (11 kishi);

odam savdosi qurbonlari uchun 0,5 foiz (2 kishi).

3. Shaxslarning ko‘rsatib o‘tilgan toifalari uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun – bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun - ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun – mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘ligi holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosi qurbonlari uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari.

4. Tashkilotlar rahbarlari:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi

Nizomga muvofiq ushbu qarorning 2-bandida ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishini ta’minlasinlar.

5. Mazkur qarorning 2-ilovasida qayd etilgan korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari:

2024-yil boshlanishidan kamida 10 kun oldin, zaxiraga qo‘yiladigan umumiy ish o‘rinlari sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo‘yilishini va tayyorligini ta’minlasin, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qilsin;

ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zahiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan 2024-yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlansin, bu haqda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilsin;

har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha axborot taqdim etsin.

6. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha tuman hokimining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

7. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (O.Xushboqov):

besh kun muddatda ushbu qarorning 2-ilovasidagi tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

8. Mazkur qaror 2024-yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

9. Tuman hokimining matbuot kotibi-axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (N.Xakimova):

ushbu qaror tuman hokimligining rasmiy sahifasi va ijtimoiy tarmoqlarda yoritilishi ta’minlansin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari X.Tashpulatov zimmasiga yuklatilsin.

Yangihayot tumani hokimi **X.Inogamov**

Yangihayot tuman hokimining
2023-yil 11-oktabrdagi
292-14-220-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Yangihayot tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2024-yilga mo‘ljallangan band qilinishi kerak bo‘lgan ish o‘rinlari sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni belgilash bo‘yicha maxsus komissiya tarkibi

1.	X.Tashpulatov	-	tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, ***maxsus komissiya raisi***
Maxsus komissiya a’zolari:			
2.	S.Jo‘rayev	-	tuman Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i
3.	O.Xushboqov	-	tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i
4.	A.Maxmudov	-	tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i
5.	G.Murodova	-	tuman byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘limi boshlig‘i
6.	I.Nishanov	-	tuman Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i
7.	G.Begimqulova	-	tuman Ijtimoiy moslashish markazi rahbari
8.	A.Hayitqulov	-	tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari, komissiya kotibi

Yangihayot tuman hokimining
2023-yil 11-oktabrdagi
292-14-220-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Yangihayot tumanida 2024-yil uchun “kvota” ijtimoiy muhofazaga muhtoj va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish bo‘yicha
MA’LUMOT

№	Korxona nomi	Xodimlar soni	Hokimiyat tomonidan yaratilgan mahsus ish joylari	Korxonada xaqiqatan yaratilgan maxsus ish o‘rinlari	o‘n to‘rt yoshgacha va nogironligi bo‘lgan shaxs bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz onalar va ko‘p bolali oilalar	Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari	Safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar	Nogironligi bo‘lgan	Pensiya oldi yoshidagi shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar	Odam savdosidan jabrlanuvchilar
1	“Maxsus temir-beton buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish zavodi” MChJ	116	7		2	3	1		1		
2	Yangihayot tumani tibbiyot birlashmasi	531	18		5	9		1	3		
3	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining Toshkent shahar Yangihayot tumani bo‘limi	36	1		1						
4	Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Toshkent shahar hududiy filiali	186	6		2	3			1		
5	“Shahar 1-son tug‘ruq kompleksi” davlat muassasasi	388	17		6	9			2		
6	65-sonli oilaviy poliklinika	142	4		2	2					
7	66-sonli oilaviy poliklinika	150	4		2	2					
8	Yangihayot tumani 40-sonli umumiy tipdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	20	1		1						

9	Yangihayot tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	342	19		7			1	4	6	1
10	“4-avtobus saroyi” MChJ	776	18		8	2	2	1	4	1	
11	“12-avtobus saroyi” MChJ	763	17		8	3	1	1	3	1	
12	“Profpack” MChJ	200	8		3	4			1		
13	“Health line” MChJ	468	12		4	4		1	2	1	
14	Toshkent shahar sog‘liqni saqlash tibbiy ko‘rik	204	6		3	3					
15	“Artikul aziya kabel” MChJ	350	14		4	6		1	3		
16	“Bektemir metall konstruksiyalari” MChJ	356	18		7	7	1	1	2		
17	Yangihayot tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi muassasasi	49	1		1						
18	“Solibri textile” MChJ	84	2		1	1					
19	“Smile lux” MChJ	102	3		1	1	1				
20	“Bojxona-servis” davlat muassasasi	96	3		2	1					
21	“Sputnik taksiservis” MChJ	53	2		1	1					
22	“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi “Toshkent turizm va biznes kolleji” davlat muassasasi	49	1		1						
23	“Sifco international” MChJ	83	2		1	1					
24	“Uzpolitex holding” MChJ	125	5		2	2			1		
25	Yangihayot tumani 41-sonli umumiy tipdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	38	1		1						
26	“Delight-neo” MChJ	52	1		1						
27	“O‘zbekiston rangli metall parchalari chiqindilarini tayyorlash va qayta ishlash zavodi” XII aksiyadorlik jamiyat	506	12		5	4	1	1	1		
28	Yangihayot tumani 44-sonli umumiy tipdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti	62	1		1						
29	“Ecoborn inc” MChJ	120	6		3	2			1		
30	“DSK binokor” MChJ	928	23		9	6	1	1	4	1	1
31	Yangihayot tumani 45-sonli umumiy tipdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	28	1		1						

32	Yangihayot tumani 48-sonli umumiy tipdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	58	1		1						
33	Yangihayot tumani 49-sonli umumiy tipdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	54	1		1						
34	“Brend prime” QK MChJ	60	3		1	2					
35	“Yeast color” MChJ	102	2		1	1					
36	“Yangihayot tumani sport maktabi” davlat muassasasi	54	1		1						
37	Mostotryad -13 tr ko‘prikqurilish	125	4		2	2					
38	“Sun tex” MChJ	116	2		1	1					
39	“Dentafill plyus” MChJ	454	18		8	6	1	1	2		
40	“Xurshida-bonu” HK	135	5		3	2					
41	Yangihayot tumani 50-sonli umumiy tipdagi ta’lim tashkiloti	42	1		1						
42	Yangihayot tumani 51-sonli umumiy tipdagi ta’lim tashkiloti	42	1			1					
43	Yangihayot tumani 109-sonli umumiy tipdagi ta’lim tashkiloti	35	1		1						
44	121-sonli bolalar bogchasi	62	1			1					
45	122-sonli “Yangihayot O‘zbekiston avlodlari” nomli umumiy turdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti	71	1		1						
46	Yangihayot tumani 123-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti davlat muassasasi	45	1		1						
47	Yangihayot tumani 124-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti davlat muassasasi	60	1			1					
48	Yangihayot tumani 305-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti davlat muassasasi	54	1		1						
49	351-sonli bolalar bog‘chasi	25	1		1						
50	352-son maxsus bolalar bog‘chasi	26	1			1					
51	353-sonli bolalar bog‘chasi	22	1		1						
52	Yangihayot tumani 354-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti davlat muassasasi	24	1			1					
53	355-sonli bolalar bog‘chasi	23	1		1						
54	356-sonli bolalar bog‘chasi	32	1			1					
55	“Sifco internationat” MChJ	83	4		2	1			1		
56	“Mexmost” MChJ	116	4		2	2					
57	“Akfa assembly” MChJ	1200	22		9	9	1	1	2		
58	“Mir jahon teks” MChJ	32	1		1						

59	“Almerro group” MChJ	289	8		3	3	1		1		
60	459-sonli bolalar bog‘chasi	51	1		1						
61	508-maxsus bolalar bog‘chasi	41	1						1		
62	566-maxsus bolalar bog‘chasi	82	1		1						
63	581-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi	45	1			1					
64	584-sonli maktabgacha ta’lim muassasasi	37	1		1						
65	2-son o‘rta maktabi	88	2		1	1					
66	3-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	113	1		1						
67	8-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	140	1		1						
68	32- sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	99	2		1	1					
69	285-umumiy o‘rta ta’lim martabi	162	2		1	1					
70	292-umumiy o‘rta ta’lim martabi	63	1		1						
71	303-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	90	1			1					
72	304-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	100	2		1	1					
73	329-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	141	2			1			1		
74	330-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	161	3		1	1			1		
75	331-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	120	1		1						
76	332-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	120	1		1						
77	333-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	48	1			1					
78	334-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	38	1		1						
79	335-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	57	1		1						
80	336-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi	48	1			1					

81	“Binokor precast technologies” MChJ	662	11		6	2		1	1	1	
82	“Respublika ixtisoslashtirilgan dermatovenerologiya va kosmetologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining toshkent shahar hududiy filiali” davlat muassasasi	186	2		1	1					
83	“Index management service” MChJ	151	5		2	2			1		
	Jami:	**13645**	**370**		**164**	**126**	**11**	**12**	**44**	**11**	**2**